



IJTIMOIIY TARMOQLARDA XORAZM ETNOLOGIYASI MASALALARI
TEMATIKASI: RAQAMLI MAKONDA ETNIK MEROSNING
TRANSFORMATSIYASI

Yusupov Jaloladdin Jamoladdin o'g'li

Abu Rayhon Beruniy nomidagi

*Urganch davlat universiteti Ijtimoiy-iqtisodiy
fanlar fakulteti "Tarix" kafedrasi o'qituvchisi*

E-mail: yusupovjalol14@gmail.com

Annotatsiya. *Mazkur tezisdagi ijtimoiy tarmoqlarda Xorazm etnologiyasiga oid mavzularning yoritilishi, ularning mazmuniy yo'nalishlari hamda ommaviy ong shakllanishidagi o'rni tahlil qilinadi. Tadqiqotda raqamli makon etnologik bilimlarni tarqatishning yangi maydoni sifatida baholanadi.*

Kalit so'zlar: *Xorazm etnologiyasi, ijtimoiy tarmoqlar, raqamli madaniyat, an'analar, etnik identitet.*

Аннотация. *В данном тезисе анализируется освещение тем, связанных с этнологией Хорезма, в социальных сетях, их содержательные направления, а также роль в формировании массового сознания. В исследовании цифровое пространство рассматривается как новая площадка для распространения этнологических знаний.*

Ключевые слова: *этнология Хорезма, социальные сети, цифровая культура, традиции, этническая идентичность.*

Abstract. *This thesis analyzes the representation of topics related to Khorezm ethnology on social media platforms, their thematic orientations, and their role in shaping public consciousness. The study considers the digital space as a new arena for the dissemination of ethnological knowledge.*

Keywords: *Khorezm ethnology, social media, digital culture, traditions, ethnic identity.*

XXI asrda axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining jadal rivojlanishi jamiyatning madaniy va ijtimoiy hayotida tub o'zgarishlarni yuzaga keltirdi. Ayniqsa, ijtimoiy tarmoqlar nafaqat muloqot vositasi, balki tarixiy xotira, madaniy meros va etnik identitetni shakllantirish hamda qayta talqin etishning muhim maydoniga aylandi. Ushbu jarayon doirasida etnologiya fani ham an'anaviy akademik makondan tashqariga chiqib, raqamli platformalarda yangi ifoda shakllariga ega bo'lmoqda. Xorazm etnologiyasi — o'ziga xos tarixiy-madaniy qatlamlarga ega bo'lgan, marosimlar, urf-odatlar, xalq og'zaki ijodi va ijtimoiy munosabatlar tizimi bilan ajralib turuvchi murakkab etnomadaniy hodisadir. Bugungi kunda bu boy meros ijtimoiy tarmoqlarda turli formatlarda namoyon bo'lib, ommaviy ongda Xorazm haqidagi tasavvurlarni shakllantirmoqda. Shu bois ijtimoiy tarmoqlarda Xorazm etnologiyasining qanday mavzular orqali, qaysi diskurslarda va qanday maqsadlarda yoritilayotganini ilmiy jihatdan tahlil qilish dolzarb masalaga aylanmoqda.



TANQIDIY NAZAR, TAHLILIIY TAFAKKUR VA INNOVATSION G‘OYALAR



Zamonaviy jamiyat Internetning keng tarqalishi tendentsiyalari bilan ajralib turadi. Internet tarmog‘ining virtual makonida axborotning mavjudligi insoniyat taraqqiyotining yangi bosqichi — kiber jamiyatning boshlanishi bilan bog‘liq bo‘lib, u axborot resurslarining taraqqiyot dvigatellari rolini bajaradi. Insonlar internetdan, xususan, ijtimoiy tarmoqlardan tobora ko‘proq foydalanishi oqibatida bir xil qiziqishlarga ega onlayn hamjamiyatlarning tobora ko‘proq shakllanib borayotganini ko‘rishimiz mumkin.

Zamonaviy bolalar va o‘smirlar, Z-avlod vakillariga ijtimoiy tarmoqlar ko‘plab imkoniyatlarni ochib bermoqda. Bular aloqaning masofaviy tabiati, suhbatdoshlarni tanlash huquqi, turli xil, shu jumladan taqiqlangan ma‘lumotlarga kirish orqali masofalarni yengib o‘tish imkoniyatlari ijtimoiy tarmoq foydalanuvchilariga hal qilinmagan vazifalar va umidsizlikka uchragan ehtiyojlarni qoplashga imkon beradi. Ijtimoiy tarmoqlar o‘zini namoyon qilish va ijodkorlik uchun noyob vositalar bilan to‘ldirilgan, xususan, personifikatsiya qilish uchun ko‘plab imkoniyatlarni taqdim etadi.

Hozirgi kunda yetuk mansublik nuqtai-nazaridan keksa odamlar ham muloqot qilish, kundalik vazifalarni bajarish uchun onlayn xizmatlardan faol foydalanmoqdalar. Muloqot qilish, shuningdek xaridlar, xizmatlar uchun to‘lovlarni amalga oshirishga bir nechta soniya kifoya qiladi. Albatta, ushbu tendentsiyalar foydalanuvchilarning kiber makonda bo‘lish vaqtini ko‘payishiga va ularni turli mavzularga bog‘lanib qolishiga olib keladi. Ijtimoiy tarmoq foydalanuvchilarining virtual identifikatori etnografik hodisa sifatida ijtimoiy tuzilishga ega bo‘lib, virtual foydalanuvchi identifikatorining xususiyatlari ijtimoiy tarmoqlarda muhokama etilayotgan mavzularning ijtimoiy, siyosiy, etnik va geografik xususiyatlaridan kelib chiqadi.

Jumladan, Ijtimoiy media foydalanuvchilarining virtual identifikatsiyasini tadqiq etish foydalanuvchilarining virtual identifikatori va ularning haqiqiy kimligini qiyosiy tahlil qilish imkoniyatini beradi.

Turli darajadagi virtual identifikatsiya va kommunikativ xulq-atvor xususiyatlariga ega ijtimoiy tarmoq foydalanuvchilarining Internet faoliyati va submadaniyati ularining shaxsiy xususiyatlarini anglashga olib keladi. Ijtimoiy tarmoq foydalanuvchilarida virtual makon omillari ta‘sirida shakllanadigan shaxsning ego o‘ziga xosligi va xususiyatlari ularning submadaniyatiga ta‘sir o‘tkazadi, bu ta‘sir ba‘zan ijobiy, ba‘zan esa salbiy bo‘lishi mumkin.

Foydalanuvchi virtual identifikatsiyasining tuzilishi “kiberdiksiyaga moyillik” (foydalanuvchi uchun ijtimoiy tarmoqlarning ahamiyati darajasi, shuningdek, haddan tashqari foydalanish natijasida onlayn platformalarning ma‘lumotlariga bog‘liqlikning paydo bo‘lishi), “submadaniyatni qabul qilish” (Foydalanuvchi tomonidan ijtimoiy tarmoqlarning virtual makoniga xos bo‘lgan me‘yorlarni qabul qilish va unga amal qilish darajasi), “virtual tasvir” kabi tarkibiy qismlarni o‘z ichiga oladi.

O‘zbekistondagi eng mashhur ijtimoiy tarmoqlar ro‘yxatida: Instagram, Telegram, Youtube, Instagramm, Facebook, WhatsApp messenjerlari hisoblanadi.

Instagramda 2023-yil dekabr oyi statistikasida O‘zbekistonlik foydalanuvchilari soni 7 986 200 kishini tashkil etgan, bu O‘zbekiston aholisining deyarli ¼ qismi (23,2%). Bu erda



TANQIDIY NAZAR, TAHLILIIY TAFAKKUR VA INNOVATSION G‘OYALAR



foydalanuvchilarning eng katta guruhini 18 yoshdan 24 yoshgacha (3 500 000) bo‘lgan yoshlar tashkil etadi. Instagram eng mashhur ijtimoiy media platformasi bo‘lib, O‘zbekistondagi veb-saytlarga trafikning 30,08 foizini tashkil qiladi.

O‘zbekiston Telegram kanallari soni va ularning auditoriyasi bo‘yicha (Rossiyadan keyin) ikkinchi o‘rinda turadi. O‘zbekistondagi Telegram kanallarining umumiy auditoriyasi 74 000 990 000 kishini tashkil etadi, deb yozadi Telegram mualliflik kanali asoschilaridan biri rossiyalik Georgiy Lobushkin, O‘zbekistondagi ijtimoiy tarmoqlar faoliyati statistikasida. Uning ta’kidlashicha, O‘zbekiston telegram kanallar soni bo‘yicha Rossiyadan keyin ikkinchi o‘rinni egalladi.

Datareport ma’lumotlariga ko‘ra, 2024-yil yanvar oyida O‘zbekistonda 8,70 million faol ijtimoiy tarmoq foydalanuvchisi bo‘lgan. 2024 yil boshida O‘zbekistonda ijtimoiy tarmoqlardan foydalanuvchilar soni umumiy aholining 64,6 foizini tashkil etgan.

Kiberetnografiyada Xorazm madaniyatining turli internet platformalarida qanday aks etayotganini o‘rganish, bu orqali Xorazmga oid madaniy kontentlar — an’anaviy musiqa, raqslar, ovqatlar, marosimlar va kiyim-kechaklar internetda qanday taqdim etilayotgani va ushbu kontentga jamoatchilikning munosabatini tadqiq qilish muhim hisoblanadi. Bunda asosiy e’tibor xorazmliklarning virtual jamoalardagi faoliyatiga qaratiladi. Xorazmdan chiqqan internet foydalanuvchilari o‘z madaniy identifikatsiyasini internetda himoya qilishlari, jamoatchilik bilan o‘zaro aloqalari va ularning milliy xususiyatlarini internet muhitida saqlab qolishga intilishi kabi masalalarni o‘rganish asosida Xorazm aholisining jamoaviy his-tuyg‘ulari va internetdagi milliy identikligining shakllanishini ko‘rib chiqishimiz mumkin.

Ijtimoiy tarmoqlarda Xorazm etnologiyasi masalalari tematikasiga to‘xtalar ekanmiz, dastlab Xorazmga oid an’analar va raqamli transformatsiya mavzusiga duch kelamiz. Xorazm madaniy an’analari internet orqali qanday o‘zgarishga uchrayotgani muhim tadqiqot yo‘nalishi bo‘lib, internetdagi globalizatsiya va media ta’siri ostida mahalliy madaniyat shakllanishi va transformatsiya bo‘lishini tushunishga imkon beradi. Misol uchun, hozirgi kunlarda Xorazmdagi milliy bayramlar yoki an’analar internet orqali onlayn jamiyatlarda targ‘ib qilinayotganda an’analar bilan bogliq yangi elementlar paydo bo‘layotganligini ko‘rishimiz mumkin. Ijtimoiy tarmoqlar va onlayn hamjamiyatlar Xorazmning milliy bayramlari va an’analarini ko‘rsatuvchi yangi elementlarning rivojlanishi nafaqat mahalliy, balki global auditoriyaga ham o‘z madaniyati va urf-odatlarini tanitishda muhim bo‘lib, Ijtimoiy tarmoqlarda Xorazmning milliy bayramlari va an’analari bilan bog‘liq yangi usullar va formatlar yuzaga kelmoqda, masalan: Digital Bayramlar va Festivallar-onlayn hamjamiyatlarda milliy bayramlar, masalan, Navro‘z, Xorazmning to‘y marosimlari va boshqa an’anaviy bayramlar onlayn tarzda keng yoritilmoqda. Xorazmda Navro‘z bayrami onlayn tarzda, ijtimoiy tarmoqlarda jonli efirlar, video va suratlar yordamida keng nishonlanishi, tarmoq foydalanuvchilarining sumalak tayyorlash jarayonlarini, bahor bilan bog‘liq an’anaviy o‘yinlarni ko‘rsatadigan videolarni baham ko‘rishi bunga misol bo‘ladi. Bayramlarga bag‘ishlangan virtual festivallar o‘tkazilib,



TANQIDIY NAZAR, TAHLILIIY TAFAKKUR VA INNOVATSION G'OYALAR



foydalanuvchilar o'z an'alarini namoyish qilish imkoniga ega bo'lmoqda. Onlayn hamjamiyatlarda Xorazm bayramlari va an'alariga oid interaktiv faoliyatlar tashkil etilib, foydalanuvchilarga o'zaro muloqot qilish, fikr almashish va madaniy merosni birgalikda saqlash imkoniyatini yaratib bermoqda. Onlayn tanlovlarda Xorazm to'y marosimlari yoki Navro'zga oid fotosurat va videolarni tanlash uchun onlayn tanlovlar o'tkazilib, ishtirokchilar o'z bayram suratlarini yoki videosini yuborib, yutuq olishlari mumkin. Bayramlar va an'analar haqidagi hikoyalarni onlayn platformalarda baham ko'rish, masalan, Xorazmning an'anaviy to'ylari haqida hikoya qiladigan foydalanuvchilarni rag'batlantirish asosida mahalliy marosimlar ommalashtirilayotganligini ko'rishimiz mumkin.

Bayramlarga bag'ishlangan Hashtaglar va Challengiar Ijtimoiy tarmoqlarda Xorazmning milliy bayramlari va an'alarini ommalashtirmoqda. Xorazmda Navro'z bayramiga bag'ishlangan #Navro'zChallenge hashtaglarida foydalanuvchilar o'z an'alarini va bayramlarini, masalan, sumalak tayyorlash, bahor bayramlarida o'ynaladigan o'yinlar yoki Navro'z taomlarini ijtimoiy tarmoqlarga joylashtirganligi ularni yanada keng tarqalishiga olib kelmoqda.

Ijtimoiy tarmoqlarda Xorazmning milliy bayramlari va an'analari haqida ma'lumot beradigan virtual madaniyat markazlari va vebinarlar tashkil etilmoqda. Xorazmning tarixiy bayramlari, urf-odatlar va milliy an'alarini o'rgatadigan vebinarlar o'quvchilar va yoshlar uchun ma'lumot olish imkoniyatini yaratadi. Xorazmning milliy bayramlari va an'analari haqidagi onlayn ko'rgazmalarni ijtimoiy tarmoqlarda namoyish etilishi foydalanuvchilarni bayramlar haqidagi ma'lumotlar bilib olishga undaydi. Onlayn va oflayn faoliyatlarning uyg'unlashuvi orqali gibrid bayramlar tashkil etilishi boshqa mintaqalar, boshqa madaniyatlar orasidagi madaniy aloqalarni, virtual bayram festivallari kengaytirmoqda

